

Qumqo'rg'on sadosi

Xalq deputatlari Qumqo'rg'on tuman Kengashi va tuman hokimligining nashri

30 aprel - 1 may 2025 yil. № 8 (3366) son

IJTIMOIIY-SIYOSIY GAZETA

Gazeta 1978 yildan chiqa boshlagan

Endi mahalla raislari har 5 yilda saylanadi

Joriy yil 11-fevral kuni qabul qilingan tegishli qonun bilan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi va «Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida»gi qonunlariga fuqarolar yig'ini raisi vakolatlari muddatini uzaytirishga doir o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Unga ko'ra, endilikda mahalla raislari vakolatlari muddati 3 yildan 5 yilga uzaytiriladi. Shuningdek, bo'shab qolgan o'rinlarga ham fuqarolar yig'inlari raislari 5 yil muddatga saylanadi.

Hozirgi kunda tumanimiz bo'ylab 61 ta mahallada 427 nafar «Mahalla yettilligi» a'zolari faoliyat yuritmoqda. Ular aholini ish bilan

ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, jinoyatchilikning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oilalarda totuvlikni ta'minlash kabi yo'nalishlarda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida»gi Qonuniga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga muvofiq, mahalla raislarining vakolat muddati 5 yilga uzaytirildi. Shu bilan birga, mamlakat tarixida ilk bor saylovlar yangicha demokratik tamoyillar asosida, ochiqlik va oshkoralikda, fuqarolarning xohish-irodasi erkin ifoda etiladigan sharoitda o'tkaziladi.

Mahalla raislari saylovi boshlandi



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek, milliy qadriyatlardan, mahalliy urfodatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishi belgilangan.

Shu asosda, yurtimizning barcha joylarda bo'lgani kabi muhim siyosiy jarayon 2025-yil 1-may kuni Qumqo'rg'on tumani «Do'stlik» mahalla fuqarolar yig'inida navbatdagi mahalla raisi saylovi bo'lib o'tdi.

Jami 243 nafar vakildan 193 nafari saylovda qatnashib, ovoz berdilar. Saylov yakunlariga ko'ra, Bobomurodov Elmurod Tojiyevich 79% ovoz bilan yana bir bor

«Do'stlik» mahalla fuqarolar yig'ini raisi etib saylandi.

Bu galgi mahalla raislari saylovi – xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan, demokratiya va faol fuqarolik jamiyati tamoyillariga muvofiq o'tadigan tarixiy jarayon sifatida yurtimiz siyosiy hayotida muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Baxtiyor Djumayev,
O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo'limi boshlig'i, mahallani qo'llab-quvvatlash tuman Kengashi raisi o'rinbosari

Sokin hovli. So'rida yuzlaridan nur yog'ilib turgan nuroniy otaxon choy ichib, nabiralari davrasida o'tiribdi. Xonadonda o'zgacha fayz, baraka bor. Jo'ra bobo Karimov tumanimizdagi «Boymoqli» mahallasida yashaydi. Jo'ra bobo 1-may kuni 100 yoshni qarshi oldi. Ammo, otaxon bilan suhbatlashish jarayonida fikrlari teran, so'zlari sadafdek tizilganligining guvohi bo'ldik. Xonadonning farishtasi bo'lgan Ul'g'uzi aya ham 95 yoshni qarshi olgan. Turmush o'rtog'i Jo'ra bobo bilan 6 nafar farzandni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazdi. Hozirgi kunda 50 nafardan ortiq chevaralarning sevimli bobosi hamda buvisi bo'lishgan. Mahalla ahli o'rtnasida ham obro', e'tiborga loyiq oila hisoblanishadi. Tuman Kengashi deputatlari M.Nomozov, B.Abdumominov, Ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi rahbari M.Mustanovlar Jo'ra boboni qutlug' 100 yoshi bilan muborakbod etish uchun xonadoniga borishdi.

Tabarruk yoshdagi onaxonlar bilan dorilomon kunlar shukronasi, yurtimizdagi tinchlik-osoysihtalik ne'mati haqida suhbatlashdi. Otaxon va Onaxon duoga qo'l ochib, tinchligimizga ko'z tegmasin, xalqimizning boshi omon bo'lsin, ezgu ishlar boshida turgan Prezidentimizga kuch-quvvat bersin, deya duo qildilar.

Rayhon Mengziyayeva

Xonadon farishtalari



Surxondaryo viloyati prokurori B.Babadjanov boshchiligidagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, faoliyatdagi mavjud muammolarni bartaraf etish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmogda.

Xususan, viloyat prokurori Qumqo'rg'on tumanida bo'lib, tuman hokimligida tadbirkorlar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda tadbirkorlar tomonidan asosan imtiyozli kreditlar, soliqlik to'lovlari, elektr ta'minoti, yer va noturar obyektlar kadastr, sud jiro masalalarida 45 ta murojaat kelib tushdi. Shundan, 13 ta murojaat joyida ijobiy hal etilgan bo'lsa, muddat talab etadigan murojaatlar mas'ullarga yo'naltirilib, ko'rib chiqilishi nazoratga olindi.

Uchrashuvda faoliyati to'xtab qolgan tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tiklashga alohida e'tibor qaratildi.



Qumqo'rg'on tumanida saylov jarayonlariga tayyorgarlik bo'yicha amaliy o'quv seminar o'tkazildi

Qumqo'rg'on tumanida bo'lib o'tadigan saylovlarga tayyorgarlik ko'rish maqsadida amaliy o'quv seminar tashkil etildi.

Seminarida saylovni o'tkazish bo'yicha tuman komissiyalariga ko'maklashuvchi a'zolar, shuningdek, mahalla fuqarolar yig'inlarida saylovni tashkil etish va o'tkazishga mas'ul bo'lgan mahallalardagi ishchi guruh raislari ishtirok etdi.

Seminar davomida ishtirokchilarga saylov qonunchiligi, saylov jarayonining shaffofligi va adolatligini ta'minlash, ovoz berish uchun teng imkoniyatlar yaratish, saylovchilar bilan ishlash madaniyati hamda tashkiliy jarayonlarni to'g'ri yo'lga qo'yish bo'yicha batafsil ma'lumot va uslubiy ko'rsatmalar berildi.



Sog'lomlashtirish oyligi boshlandi

2025-yil 26-aprel kuni Qumqo'rg'on tumani «Jaloir» mahallasida joylashgan «Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi N.Mirzayev filiali»da «Bor mehrimiz shu Vatan, shu xalq uchun!» shiori ostida bepul tibbiy ko'rik boshlandi.

Tibbiy ko'rikga «Jaloir», «Uyas» va «Nurli diyor» mahallasida istiqomat qiluvchi aholi va tumandagi barcha soha

mutaxassislari jalb qilingan.

Ushbu aksiya tadbirini o'tkazishdan maqsad, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kambag'allik reestriga kiritilgan aholi orasida kasalliklarni erta aniqlash va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish maqsad qilingan.

Ulug'bek Musayev,
tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i o'rinbosari



«Shijoat va g'ayrat» harbiy - vatanparvarlik musobaqasining tuman bosqichi

Mamlakatimiz bo'ylab yoshlar o'rtasida o'tkazilayotgan «Shijoat va g'ayrat» harbiy-vatanparvarlik musobaqasining Qumqo'rg'on tumani bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi.

Musobaqada tumanning 61 ta mahallalaridan 18-22 yosh toifasiga mansub yoshlar ishtirok etib, jismoniy tayyorgarlik, harbiy intizom, zakovat va jamoaviylik kabi yo'nalishlar bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Ma'lumot uchun, musobaqaning Respublika bosqichida g'olib deb topilgan jamoa a'zolari harbiy oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli tartibda o'qishga qabul qilinish uchun maxsus kvotalar bilan ta'minlanadi.

O'z muxbirimiz

Aliment pullarini to‘lamagan otaga sud hukmi o‘qildi

Qumqo‘rg‘on tumanida 2017 yildan buyon farzandiga aliment pullarini to‘lamasdan kelgan otaga sud hukmi o‘qildi.

Ma‘lum qilinishicha, 2017 yil 7 dekabrdagi sud qaroriga ko‘ra, ishlab topgan daromadining 1/2 qismi miqdorida aliment undirish belgilangan. Sud jarayonida T.P. uch nafar farzandi moddiy ta‘minoti uchun 2017 yildan, ya‘ni 7 yildan ortiq vaqt mobaynida 119 mln so‘mdan ortiq aliment pulini to‘lashdan bosh tortib kelgan.

Qarzdor ota sud zalida aliment pulini to‘lamasligini ma‘lum qilgach, undiruvchi sudlanuvchiga qonuniy jazo berishni so‘ragan. Shunga ko‘ra, sud O.B.ga nisbatan JKning 122-moddasi 1-qismi bilan 1 yil muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosini tayinlagan.

Komil To‘raqulov,
Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo‘limi boshlig‘i

“Gashish” giyohvandlik moddasi aniqlangan fuqarolarga sud hukmi o‘qildi

2024 yilning 29 noyabr kuni soat 21:30 larda Qumqo‘rg‘on tumani IIB JQB xodimlari tomonidan “Qorsoqli” mahallasida o‘tkazilgan tadbir davomida fuqaro K.O xolislar ishtirokida tekshirilib ko‘rilganda uning yonida bir dona selofan paketga solingan og‘irligi 0,58 gramm “Gashish” smola giyohvandlik hamda uning boshqaruvida bo‘lgan Lasetti rusumli avtomashinasi ko‘zdan kechirilganda 0,02 gramm “Gashish” smola giyohvandlik vositasini kelgusida o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay saqlab kelayotganligi aniqlanib, holislar ishtirokida tegishli tartibda hujjatlashtirilib olingan.

Mazkur holat yuzasidan Qumqo‘rg‘on tumanida o‘tkazilgan sudda aybdor deb topildi va qonuniy jazo qo‘llanildi.

Dilshodbek Ibragimov,
bo‘lim prokurori

O‘quvchini urib burun suyagini sindirgan o‘qituvchiga sud hukmi o‘qildi

O‘qituvchi Jinoyat kodeksining 277-moddasining 1-qismi bilan nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan.

Qumqo‘rg‘on tumanida o‘quvchini urib, uning burun suyagi sinishi, o‘ng ko‘z pastki qovog‘ida qontalash kabi tan jarohati yetkazgan o‘qituvchiga sud hukmi o‘qilgan.

Hodisa 2024 yil 10 dekabr kuni tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qarashli 24-maktabda sodir bo‘lgan. Maktab o‘qituvchisi 10-sinf o‘quvchisini dars mobaynida daftari yo‘qligi, o‘tilgan mavzuni yozmayotganligi sababli ayblab urgan, oqibatda bolaning burun suyagi sinib ketgan.

Qayd etilishicha, sud sobiq o‘qituvchini Jinoyat kodeksining 277-moddasi 1-qismi bilan 1 yil muddatda pedagogik faoliyati bilan bog‘liq vazifalarda ishlash huquqidan mahrum qilib, ish haqining 20 foizini davlat daromadiga ushlab qolgan holda 2 (ikki) yil axloq tuzatish ishi jazosi tayinlandi.

Baxriddin Qarorov,
bo‘lim katta prokurori

Firibgarlik jinoyatini sodir qilgan shaxs ustidan hukm o‘qildi

Aldov yo‘li bilan o‘zganing mol – mulkini firibgarlik yo‘li bilan talon-taroj qilish maqsadida sudlanuvchi U.P Sho‘rchi tumanida yashovchi fuqaro I.R bilan uchrashib, undan jami bahosi 33.000.000 so‘mlik chorva kredit mablag‘i chiqarib, hisob raqamiga o‘tkazishni va‘da qilib, undan jami 11 bosh qo‘ylarni olib, ammo mazkur chorva mollari uchun kredit mablag‘i ajratish bo‘yicha biror bir bank muassasasiga murojaat qilmasdan, o‘zganing 33.000.000 so‘mlik mulkini firibgarlik yo‘li bilan talon-taroj qilgan.

Sudlanuvchi U.P (ism-familiyalar o‘zgartirildi) 2024 yil 3 aprel kuni jinoiy harakatini davom ettirib, oldindan tanish bo‘lgan T.Q bilan uchrashib, jami bahosi 44.000.000 so‘m bo‘lgan 21 bosh qo‘ylarini, pulini 2024 yil 3 iyulga qadar berishini va‘da qilib, sotib yuborgan. Ehtiyojlari uchun ishlatib yuborgan. Ko‘za kunda emas kunida sinadi deb bejizga aytishmagan. U.P ga Jinoyat kodeksining 168-moddasi 3-qismi “b” bandi bilan nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybli deb topildi.

Akrom Chariyev,
Jinoiy sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi boshlig‘i

O‘zboshimchalik bilan egallangan yer

Qumqo‘rg‘on tumanlararo sudining binosida ochiq sud majlisida da‘vogar Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tuman bo‘limi javobgar I.F ga nisbatan noqonuniy qurilgan uy-joyni buzdirish haqidagi da‘vo arizasi ko‘rib chiqildi. Sud majlisida da‘vogar Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani bo‘limi tomonidan javobgar I.F tomonidan o‘zboshimchalik bilan egallanib 48.0 kv.m o‘lchamda 4-xonali uy-joyni noqonuniy qurib olgan. Ogohlantirilishlarga qaramasdan uy-joyni buzib olmagan. Sud hukmiga asosan javobgar zimmasiga o‘zboshimchalik bilan qurilgan uy-joyini javobgar hisobidan buzib olish qarori chiqarildi.

Aziza Salayeva,
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi katta prokurori
Elmo‘min Ortiqov,
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi prokurori

Ommaviy axborot vositalarida hamda internet nashrlarida noqonuniy yer uchastkalarini egallab olish oqibatlari haqida bong urilayotgan bo‘lsada oramizda hanuzgacha noqonuniy yer egallab qurilish qurayotgan fuqarolar uchrab turibdi. O‘tkazilgan sud majlisida K.Q tomonidan o‘zboshimchalik bilan 0.0048 gektar yer maydoni egallanib 48.0 kv.m o‘lchamda bostirma va tandirxona qurib olganligi ishi ko‘rib chiqildi. Sud qaroriga asosan hokimlik tasarrufida bo‘lgan yerning qismdan o‘zboshimchalik bilan 0.0048 gektar yer maydoni egallanib, u tomonidan qurilgan 48.0 kv.m o‘lchamda bostirma va tandirxonani buzdirilib, yer tuman hokimligi tasarrufiga qaytarilishi belgilandi.

Rasul Raxmonov,
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi boshlig‘i

RAQAMLAR YUKSALISHDAN DALOLAT BERADI QUMQO‘RG‘ON TUMANINING IJTIMOYIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI

2025 yilning yanvar-mart oylari davomida tumanimiz xalq xo‘jaligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu muddat ichida tumanimiz bo‘yicha salmoqli natijalar qo‘lga kiritilgani buning yorqin isboti bo‘la oladi.

Yilning dastlabki uch oyida tuman iqtisodiyotining asosi bo‘lgan qishloq xo‘jaligida erishilgan ko‘rsatkichlar kutilganidan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Sohaning barcha tarmoqlari bo‘yicha 371,6 milliard so‘mlik sara va sifatlí mahsulotlar ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,7 foiz o‘shish bo‘lishi ta‘minlandi.

Tumanimiz sanoatchilari 1 chorakda 233,2 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarishga erishildi va o‘shish su‘ati 112,1 % ni tashkil qildi.

Qurilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar yanvar-mart oylari oralig‘ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 266,6 milliard so‘m (132,7 foiz)ga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, 76,1 milliard so‘mlik qurilish ishlari bajarildi. Bu raqamni o‘tgan yil xos davrdagi ko‘rsatkichlar bilan qiyoslaganda, 105,5 foizlik yuksalish bo‘lganligi ko‘zga yaqqol tashlandi.

Joriy yilning uch oyi mobaynida tumanimiz aholisiga ko‘rsatilgan jami xizmatlar miqdori 299,3 milliard so‘m (110,9 foiz)dan ortdi.

Chakana tovar aylanmasi esa 247,2 milliard so‘mlikka yetib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,9 foiz o‘shish bo‘lishi ta‘minlandi.

Ma‘lumki, tumanimizda ham bugungi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, eksport va import masalalariga alohida e‘tibor bilan qaralayapti. Shuning evaziga tumanida 1 chorakda tashqi savdo aylanmasi hajmi 18386,6 ming AQSH dollari, shundan eksport hajmi 2420,4 ming AQSH dollari, import hajmi 15966,2 ming AQSH dollari qiymatiga teng bo‘ldi.

Qumqo‘rg‘on tuman statistika bo‘limi

TADBIRKORLARGA KENG IMKONIYAT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rmini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50 sonli Farmoniga muvofiq 2025-yil 1-iyuldan boshlab:

-Loyiha ofislari tavsiyasiga asosan yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlariga maydoni 10 ming kv metrgacha bo‘lgan bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini 5 yil muddatga tekin foydalanishga berish tizimi joriy etiladi;

Respublika miqyosida 15 ta tuman (shahar)dagi mahalliy boshqaruv organlari va davlat tashkilotlari binolariga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish dasturi amalga oshiriladi va uning doirasida:

-mahalliy boshqaruv organlari va davlat tashkilotlari Qurilish

O‘zbekiston Respublikasining Oila va Uy-joy kodekslariga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar to‘g‘risida

Bugungi kunda mamlakatimizda oilalardagi ma‘naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, ularning farovonlik darajasini oshirish, shuningdek xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini kuchaytirish uchun mustahkam asoslar yaratilgan.

Shu bilan birga oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari har tomonlama himoya qilinishini, shu jumladan ularning xavfsizligi kafolatini hamda munosib turmush sharoitlariga bo‘lgan huquqini bundan buyon ham ta‘minlash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2025 yil 9 apreldagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga qo‘shimcha kiritilib, unga muvofiq nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda sud oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxsning talabiga ko‘ra yarashish uchun muhlat

va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy loyiha asosida yangi barpo etiladigan ko‘p qavatli binoga joylashtiriladi;

-yangi barpo etiladigan ko‘p qavatli binoning 1 va 2-qavatlari tadbirkorlik subyektlariga mulk huquqi asosida realizatsiya qilinadi;

- mahalliy boshqaruv organlari va davlat tashkilotlarini ko‘chirish natijasida bo‘shaydigan davlat ko‘chmas mulk obyektlari biznes loyihalarini amalga oshirish uchun elektron onlayn auksion savdolariga chiqarilishi belgilab qo‘yildi.

L. G‘oibov,
“Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish” AJ Surxondaryo viloyati vakili

tayinlamaydi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi yangi norma bilan to‘ldirilib, unga binoan turar joydan foydalanish haqidagi nizolar ko‘rib chiqilayotganda sud taraflarning kelishuviga asosan turar joy mulkdorining tashabbusiga ko‘ra turar joyga majburiy tartibda kiritilayotgan tarafni turar joy mulkdoriga tegishli mutanosib sharoitlarga ega bo‘lgan boshqa turar joyga kiritish yoki ijaraga olingan turar joy uchun ijara haqini to‘lash majburiyatini mulkdorning zimmasiga yuklatishi mumkin.

Ushbu Qonun oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini yanada kuchaytirishga, shuningdek xotin-qizlarning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahongir Karimov,
Fuqarolik ishlari bo‘yicha Qumqo‘rg‘on tumanlararo sudining sudyasi

Gazchilar mehnati qanday muhofaza qilinmoqda?

Xalqaro mehnat tashkiloti tashabbusi bilan 22 yildan buyon 28 aprel - Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni sifatida nishonlanadi.

Sana munosabati bilan Surxondaryo viloyatida turli tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, “Hududgaz Surxondaryo” gaz ta‘minoti filiali “Sherobodtumangaz” gaz ta‘minoti bo‘limida o‘quv -amaliy seminar o‘tkazildi.

Mehnat muhofazasi, sanoat xavfsizligi, favqulodda holatlarning oldini olish va ishlab chiqarish nazorati bo‘limi mas‘ul xodimlari hamda tizim jamoalarida mehnat muhofazasi bo‘yicha saylangan vakillar ishtirok etgan seminarada ish joyida jarohatlanish holatlari va kasb kasalliklarining oldini olish, mehnat muhofazasi masalalariga qaratilayotgan e‘tibor joylarda o‘z samaralarini berayotgani ta‘kidlandi.

Bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish uchun “Jarqo‘rg‘ontumangaz” gaz ta‘minoti bo‘limi binosida o‘quv-amaliyot maydonchasi barpo etilgani barcha tuman va Termiz shahrida mehnat qilayotgan, yangidan ishga qabul qilinayotgan xodimlarning o‘z ishlarini sifatli amalga oshirishiga xizmat qilayotgani qayd etildi.

O‘quv- seminarada ishtirokchilar mehnat muhofazasi bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, o‘qitish, bilimlarini sinash tartiblari bo‘yicha yangi qabul qilinayotgan hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida atroflicha ma‘lumotga ega bo‘ldi.

Korxonalarda xodimlar uchun sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi

qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan jamoat nazoratini amalga oshirish ishlarini takomillashtirish, mavjud 11 ta gaz to‘ldirish inshootida xodimlarga yaratilgan shart-sharoitlar va favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda obyekt rahbarlari, ishchi-xodimlarning to‘g‘ri harakat qilishini muvofiqlashtirish, hududdagi ishchi-xodimlarni xavfsiz hududga ko‘chirish va jabrlanganlarni tezkorlik bilan qutqarish ishlarini tashkil etish, jabrlanganlarga birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish, moddiy boyliklarni asrash bo‘yicha obyekt rahbariyati, ishchi xodimlarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulotlari samarasi tahlil qilindi. Xodimlar uchun tayyorlanayotgan maxsus kiyim bosh, shaxsiy himoya vositalari namunalari ko‘rgazmasi bilan tanishildi.

Mehnatni muhofaza qilish ishlarini namunalí tashkil etgani alohida e‘tirof etilib, mazkur “Sherobodtumangaz” gaz ta‘minoti bo‘limiga faxriy yorliq va sovg‘alar topshirildi.

O‘quv -amaliy seminar yakunida sohada xizmat qilib, barchaga o‘rnak bo‘layotgan bir guruh mutaxassislar rag‘batlantirildi.

Ushbu tadbirda “Yubiley yosh – 60 yosh”ga to‘lganligi va nafaqa yoshiga yetganligi, umrbod yoshga doir nafaqaga chiqqanligi sababli, ikki nafar hamkasblarimizni sohadagi mehnat faoliyatini yakunlayotganligi hamda gazta‘minoti sohasida ko‘p yil samarali mehnatlari e‘tirof etilib, tabriklandi.

Filial va BKUQ tomonidan tayyorlangan esdalik sovg‘alari topshirildi.

“Hududgaz Surxondaryo” gaz ta‘minoti filiali

Korrupsiyasiz ta'lim taraqqiyotga yuz tutadi

O‘zbekiston “Adolat” SDP Qumqo‘rg‘on tuman Kengashi va hamkor tashkilotlar birgalikda tumandagi “Beshqahramon” MFY hududidagi 2-sonli umumta‘lim maktabida “Korrupsiyasiz ta‘lim tarafdorimiz” mavzusidagi davra suhbatí tashkil qilindi. Tadbirda partiya tuman Kengashi vakillari, deputatlar, tuman IIB xodimlari, mahalla faollari, maktab pedagoglar jamoasi va yuqori sinf o‘quvchilari ishtirok etishdi.

Tadbir davomida ma‘ruzachilar tomonidan mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ushbu illatning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta‘siri va uning oldini olishda fuqarolar, xususan, yoshlarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etishi haqida batafsil ma‘lumotlar berildi.

Salim Saidov, 2-sonli umumta‘lim maktabi direktori, tadbir ishtirokchisi:

- Poraxo‘rlik birgina oliy ta‘limda emas, o‘rta maxsus ta‘limda ham uchrayotganligi afsuski bor gap. Shuning uchun bilimli yoshlarni adolatlilik va shaffokli tamoyillari asosida o‘qitish mexanizmlari joriy etilib, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazishda inson omili keskin kamaytirildi va pedagog kadrlarga attestatsiyadan o‘tish hamda malaka toifasi olish bo‘yicha hujjatlarni davlat xizmatlari markazlariga borgan holda yoki mustaqil ravishda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud Ta‘lim inspeksiyasi rasmiy veb-saytidagi maxsus portal orqali topshirish imkoniyatlari yaratildi. Kasbiy ta‘limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari tomonidan attestatsiya davomida tashkil etiladigan suhbat o‘tkazish tartibi to‘liq bekor qilindi. “O‘quv jarayoni” modulida guruh jurnali, dars jadvali, imtihonlar

jadvallari, reyting daftarchasi, o‘zlashtirish qaydnomalari, davomat hisobotlari va ma‘lumotnomalar raqamlashtirildi. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossas munosabatni shakllantirishga hamkor tashkilotlarni faol jalb etish va ularni rag‘batlantirish, bilim ko‘nikmalarini oshirish maqsadida “Xalq ta‘limi tizimida korrupsiyaning oldini olish” bo‘yicha trening hamda maktab o‘quvchilari uchun aksikorrupsiya darslari yo‘lga qo‘yildi. Shunday bo‘lsada, hali barcha ta‘lim muassasalari o‘quvchilari, talabalari bilimlarini baholashda mavjud axborot tizimlari hali ham mukammal ishlab chiqilgan deya to‘liq kafolat berishga erta deb o‘ylayman. Korrupsiyaga qarshi kurashish choralari haqida xabardorlik to‘laqonli emas. Tizimdagi ayrim tartiblar o‘z samarasini yo‘qotganligi va sohada korrupsiya xavfi omillari borligi bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish va samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda.

Davra suhbatí ishtirokchilari korrupsiyaga qarshi kurashishda o‘qish jarayonida tanish-bilishchilik, attestatsiyaga ega bo‘lish va baholarni to‘liq a‘lo darajasida bo‘lish uchun o‘qituvchilarga pora yoki turli xizmatlar taklif qilmasdan, o‘quvchilar chuqur bilim olishi, o‘z ustida tinmay ishlashi, ilm sir-asrorlarini puxta egallashi muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd qildilar.

Tadbir davomida ishtirokchilar savollariga ma‘ruzachilardan tegishlicha javoblar olishdi.

Shoydil Yuldashov,
O‘zbekiston “Adolat” SDP Qumqo‘rg‘on tuman Kengashi raisi

Gaz iste’molchilari diqqatiga!

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan 2025-yil 1-maydan maishiy ehtiyojlar uchun aholiga sotiladigan suyuqtirilgan gazning narxi 1 kg uchun 2000 so‘mdan (QQS hisobga olingan holda) hisoblanadi.

Ulug‘bek Shukurov,
“Qumqo‘rg‘ontumangaz” suyuqtirilgan gaz xizmat boshlig‘i



Qaysi holatlarda subsidiyaga ariza rad qilinadi?

Quyidagi hollarda ariza beruvchiga subsidiya ajratish rad etiladi:

-taqdim etilgan arizada ko‘rsatilgan ma‘lumotlar ijtimoiy mezonlarga mos kelmaganda;

- taqdim etilgan ma'lumotlar noto'g'ri yoki soxta bo'lganda;

- ilgari shahar va qishloq joylarda arzon uy-joy qurish dasturlari doirasida imtiyozli ipoteka kreditlaridan foydalangan holda kvartira yoki yakka tartibdagi uy-joy hamda subsidiya olgan (avval olingan uy-joy boshqa shaxsga begonalashtirib yuborilgan taqdirda ham) oila a‘zolari (eri, xotini) takroriy murojaat etganda;

- joriy yilda hudud uchun ajratiladigan subsidiya soni tugaganda;

- ariza beruvchi va/yoki oilaning o‘rtacha oylik daromadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda — MHTEKMning 2,7 baravaridan kam va 8,0 baravaridan yuqori;

- Toshkent shahrida — MHTEKMning 2,7 baravardan kam va 9,2 baravaridan yuqori bo‘lganda.

Kamoliddin Ashurov,
Qumqo‘rg‘on tuman adliya bo‘limi davlat xizmatlari markaz bo‘lim boshlig‘i

Bog‘chaga to‘lanadigan to‘lov miqdorlari va imtiyozlar

Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar ta‘minoti uchun ota-onalar to‘lovi miqdorlari belgilangan.

Bog‘chada to‘lovning bir kunlik qiymati bir oylik to‘lov miqdori shu oy mobaynidagi ish kunlari soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Agar bitta oiladan 2 va undan ortiq bolalar turli bog‘chalarga qatnasa, ota-onalar bir farzandi boradigan bog‘chaga ikkinchi farzandi boradigan bog‘chadan uning qatnashi to‘g‘risida ma‘lumotnomani taqdim etishi lozim.

Bog‘chalarda to‘lovlar har oyning 15-sanasidan kechiktirmasdan to‘lanadi. Oyning 15-sanasidan keyin kelgan bolalar ta‘minoti uchun to‘lovlar esa, bola kelgan kundan boshlab 3 kun ichida to‘lanadi. Bunda to‘lovlar bolaning shu oyda bog‘chaga qatnaydigan kunlarga mutanosib ravishda to‘lanadi.

To‘lovlarni vaqtda to‘lamaslik oqibatlari:

— Ota-onalar tomonidan to‘lovlarni belgilangan miqdorda va/yoki muddatlar o‘tgach 2 hafta mobaynida uzrli sabablarsiz to‘lanmaslik bolaning bog‘chada bo‘lishini to‘xtatish uchun asos bo‘ladi.

— Bog‘chaga amalga oshirilmagan to‘lov 60 kun ichida to‘lab berilganda, bolani tegishli bog‘chaga tiklash majburiy tartibda amalga oshiriladi. Mazkur muddat o‘tib ketgan taqdirda, bog‘chaga bolani tiklash yangi qabul qilingan bolalar uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sayfiddin Qudratov,
Qumqo‘rg‘on tuman adliya bo‘limi davlat xizmatlari markaz direktori

Kreditni boshqa shaxsga o‘tkazsa bo‘ladimi?

Fuqarolik kodeksining 322-moddasiga binoan qarzdorning o‘z qarzini boshqa shaxsga o‘tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Yangi qarzdor kreditor bilan dastlabki qarzdor o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan barcha e‘tirozlarni kreditor talabiga qarshi qo‘yishga haqli.

Agar kafil yoki garovga qo‘yuvchi yangi qarzdor uchun javob berishga rozi bo‘lmasalar, qarz boshqa shaxsga o‘tkazilishi bilan kafillik yoki uchinchi shaxs tomonidan belgilangan garov bekor bo‘ladi.

Demak, bank rozi bo‘lsa yuqoridagi harakatlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Abdushukur Abdumuratov,
Qumqo‘rg‘on tuman adliya bo‘limi davlat xizmatlari markaz bosh mutaxassisi

Kimlar aksiz solig‘ini to‘laydi?

Aksiz solig‘i (frantsuzcha accise, lotincha accido — kesaman) — mamlakat ichida iste'mol tovarlari (benzin, tamaki, alkogolli ichimliklar va boshqalar) ishlab chiqarish vaqtida olinadigan bilvosita soliq. U tovarlarning narxiga yoki xizmatlar tarifiga kiritiladi va shuning uchun iste'molchi tomonidan haqiqatda to‘lanadi.

Aksiz solig‘ini to‘lovchilar deb quyidagi shaxslar e‘tirof etiladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni (aksiz to‘lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

2) tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;

3) benzin, dizel yoqilg‘isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni gaz to‘ldirish stantsiyalari va gaz to‘ldirish punktlari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Ushbu bo‘limni qo‘llash maqsadida yakuniy iste'molchilar deganda o‘z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo‘lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bo‘yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs;

5) O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to‘lanadigan tovarlarni olib o‘tuvchilar. Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq mazkur shaxslar soliq to‘lovchilar deb e‘tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig‘i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari ham soliq to‘lovchilar deb e‘tirof etiladi.

Muxammad Norboyev,
Qumqo‘rg‘on tuman adliya bo‘limi davlat xizmatlari markaz bo‘lim boshlig‘i

O‘rindoshlarga “dekret puli” berilmaydimi?

Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 18 oktyabrdagi 297-son qarori bilan tasdiqlangan O‘rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 18-bandida o‘rindoshlar o‘rindoshlik asosidagi ish joyi bo‘yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi olish, ayollar esa, bundan tashqari, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari olish huquqiga egadir.

Nizomning 19-bandida esa, sog‘liqni saqlash muassasasi tomonidan berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi ushbu Nizomning 18-bandida nazarda tutilgan o‘rindoshlik asosidagi ish joyidan nafaqa olish uchun asos hisoblanishi belgilangan.

Ma‘lumot uchun: Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 49(3)-moddasiga asosan Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish nafaqalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lash bo‘yicha majburiyatdan bo‘yin tovlash, —bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo‘lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Shahnoza Bo‘ranova,
Qumqo‘rg‘on tuman adliya bo‘limi davlat xizmatlari markaz yetakchi mutaxassisi

O‘ZINI O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLARNING NORMATIV DAROMADI QANDAY ANIQLANADI?

O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarning daromadlari miqdorini aniqlashda daromad aniqlanayotgan davrda mehnatga haq to‘lash eng kam miqdori (Hozirgi kunda 1 155 000 so‘m)ning ikki baravari (2 310 000 so‘m) miqdoriga teng bo‘lgan bir oylik o‘rtacha normativ daromad miqdori qabul qilinadi deb belgilangan.

Ya‘ni, Siz o‘zingizni band qilish orqali har oyda manashu 2 310 000 so‘m daromad topayotgan shaxsga aylanasiz. Siz o‘zi o‘zi band qilganlikdagi faoliyatingiz natijasida amalda qancha daromad topayotganingizdan qat‘i nazar Sizni bir oylik normativ daromadingiz mana shu summaga tenglashtiriladi.

E. Mamatqulov,
Qumqo‘rg‘on tumani Xalq qabulxonasi yetakchi mutaxassisi

Qumqo‘rg‘on tumani Xalq qabulxonasi tomonidan O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari ijrosini ta'minlashga qaratilgan choralar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4904-sonli Farmoni talablari asosida ishtar tashkil qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5633-sonli Farmoni, “Xalq qabulxonalarining sektorlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablaridan kelib chiqib, sektorlar, idora va tashkilot rahbarlari, mas’ullar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani holda tahlillar va monitoring nazorat tadbirlari olib borilmoqda. Bu borada tumandagi sektorlar, tashkilot va korxona hamda idoralar mas’ullari bilan murojaatlarni ko‘rib chiqish va aholi muammolarining yechimini ijobiy hal etish choralari ko‘rishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

2025-yilning I choragida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va Xalq qabulxonalariga tuman aholisidan jami 1 820 ta masalalarda murojaatlar kelib tushgani holda

G‘ALLA MAYDONLARINI KASALLIK, BEGONA O‘TLAR VA ZARARKUNANDALARDAN UYG‘UNLASHGAN HIMOYA QILISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi direktorining 2025-yil 26-mart kunidagi Boshqoli don ekinlarini zang va boshqa kasalliklari, begona o‘tlar hamda zararkunandalarning tarqalishini oldini olish yuzasidan “Dolzarb 40 kunlik”ni uyushqoqlik bilan o‘tkazish to‘g‘risidagi 55-sonli buyrug‘i ijrosini ta'minlash maqsadida:

G‘alla maydonlarida sariq zang, qo‘ng‘ir zang va boshqa kasalliklar, bir yillik ikki pallali, ko‘p yillik ikki pallali begona o‘tlar, boshqoli begona o‘tlar, zararli xasva, shilimshiq qurt, shira, trips va boshqa zararkunandalarning tarqalishining oldini olish hamda zararli organizmlar kuzatiladigan maydonlarda qarshi zaruriy kurash choralarini tashkillashtirish maqsadida 2025-yil 26-martdan 4-maygacha “Dolzarb 40 kunlik” deb belgilandi.

Boshqoli don ekinlari kasalliklari

Respublikamiz boshqoli don ekinlari maydonlarida 10 dan ortiq turdagi kasalliklar zarar yetkazadi. Ular sariq zang, qo‘ng‘ir zang, un shudring, sariq dog‘lanish, septorioz va boshqa kasalliklar zarar beradi. G‘allaning eng xavfli ofatlaridan biri bu zang kasalliklaridir. Zang kasalliklari uchraydigan barcha mamlakatlarda ular har doim qat‘iy nazorat ostiga olinadi, chunki paydo bo‘lgan zang juda tez (yong‘in singari shiddat bilan) tarqalib, qisqa muddatda (3-4 haftada) o‘simlik barglarining aksariyatini quritadi va don hosiliga jiddiy zarar yetkazadi. 1 kecha-kunduzda zang sporalari shamol tezligiga qarab 100-1000 km gacha masofaga tarqaladi. O‘simliklarning sog‘lom barglariga tushgan sporalar ularni zararlaydi, to‘qima ichida rivojlanadi va 7-9 kundan keyin yangi ikkinchi avlod sporalari yetiladi, ularning bosimi tayfali epidermis yoriladi hamda sporalar erkin holatda chiqib atrofga tarqaladi. Bir mavsumda zang 7-10 avlod berib, rivojlanadi.

Sariq zang kasalligi. Sariq zang sporalari (urug‘lari) 0°C da o‘ishni boshlashi va havo harorati 8-13°C ga yetganda to‘qimalar ichiga kirib, 12-15°C haroratda yangi sporalar hosil qilishi aniqlangan. Zang zamburug‘lari zararlangan barglarining epidermis qatlami ostida joylashgan va quruq, kukun shaklli sporalar massasidan tashkil topgan yostiqlchalarni hosil qiladi. Bug‘doy bargida bitta yostiqlchada sariq zang 14-18 mingta sporani hosil qilishi mumkin. Agar bargda sariq zang uzunligi 10 sm keladigan bitta chiziqchasi bo‘lsa, ularda 1,0-1,2 mln. dona spora, 20 santimetrik yostiqchalar bilan to‘liq qoplangan bargda esa taxminan 30-40 mln. dona spora bo‘ladi. Sariq zang tuplash-naychalash fazasida paydo bo‘lib, 20-30%, ayrim hollarda 50-60%, hatto 100% hosil yo‘qotiladi.

Qo‘ng‘ir zang kasalligi. Ushbu zang kasalligi ham o‘ta xavfli hisoblanadi. Kasallik bug‘doyning barglarini, ba‘zan barg qinini zararlaydi. Bug‘doy bargida bitta yostiqlchada qo‘ng‘ir zang 16-37 mingta sporani hosil qilishi mumkin. Kasallik ta’sirida 25-50% hosil yo‘qotiladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda bug‘doyni zang kasalliklaridan himoya qilishning faqat bitta ishonchli usuli mavjud bo‘lib, bu – fungisid purkashdir.

Fungisid – o‘simlik kasalliklariga qarshi qo‘llaniladigan kimyoviy vosita. Zang kasalliklariga qarshi ob-havoning kelishiga qarab fevral oyining oxiri, mart oyida kasallik belgilari paydo bo‘lishi bilan dunyo tajribasidan kelib chiqib, profilaktik ishlovlar amalga oshiriladi. Profilaktik ishlovdan keyin hududda “Infektsiya bosimi” kuchli bo‘lsa yoki dalada zang bilan birga boshqa kasalliklar ham uchrasa, yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lib, nam havo saqlanib tursa, ob-havo bashoratini hisobga olingan holda 20-30 kun o‘tgacha, ikkinchi va yana lozim bo‘lsa uchinchi marta ishlov berish talab etilishi mumkin. Ushbu tizim qo‘llanilganda kasallikning oldi olinib, hosil asrab qolinadi.

Zang va boshqa kasalliklarga qarshi kurash

Kasalliklarga qarshi ta’sir etuvchi moddasi Propikonazol+tebukonazol bo‘lgan preparatlarni gektariga 0,2-0,3 l/ga, ta’sir etuvchi moddasi Propikonazol+siprokonazol bo‘lgan preparatlarni gektariga 0,3 l/ga, Propikonazol asosli preparatlarning 25% lisini 0,5 l/ga, 39% fungitsidslarni 0,26 l/ga sarfme’yorda qo‘llash lozim. OVX va shtangali purkagich bilan 1 gektar maydonga 0,2-0,3 litr preparat sarfi hisobida 600 litr suvga 0,4-0,6 litr miqdorda qo‘shib, 2 gektar maydonga qo‘llash tavsiya etiladi. Motorli qo‘l purkagichi bilan 10 litr suvga 5-7,5 ml hisobida qo‘shib, 2,5 sotix maydonga qo‘llash kerak. OVX va shtangali purkagich bilan 1 gektar maydonga 0,4 litr preparat sarfi hisobida 600 litr suvga 0,8 litr miqdorda qo‘shib, 2 gektar maydonga qo‘llash maqsadga muvofiq. Motorli qo‘l purkagichi bilan 10 litr suvga 10 gramm hisobida qo‘shib, 2,5 sotix maydonga qo‘llash lozim.

Zararkunandalarga qarshi kurash

Respublikamiz g‘allazorlarida 50 turdan ortiq zararkunanda hasharotlarni zarar yetkazishi kuzatilgan. Bulardan eng ko‘p tarqalgani g‘alla shiralari, bug‘doy tripsi, zararli xasva, shilimshiq qurt, vizildoq qo‘ng‘iz, shved va GESsen pashshalari va boshqa hasharotlar tarqalib, hosilga zarar yetkazishi mumkin. Bunday holatda – insektisid preparatlarni qo‘llash zararkunandalarga qarshi kurashishning eng yaxshi usulidir.

Zararli xasva – G‘alla naychalash davrida zararlangan poya boshqo chiqarmaydi yoki butunlay oq boshqo (ya‘ni puch) bo‘lib qoladi. Pishmagan boshqo zararlaniishi

2024-yildagi 2897 ta murojaatlarga nisbatan 1077 taga kamaygan.

Mazkur murojaatlarning 559 tasi 37,3 foizi ijobiy hal etilgan. Har 10 ming (o‘n ming) kishiga nisbatan 73 ta murojaat to‘g‘ri kelgan.

Tahlillarga ko‘ra, 1 sektordan 3961 ta, 2-sektordan 2711 ta, 3-sektordan 2909 ta va 4-sektordan 2452 ta murojaatlar yo‘llangan.

Murojaatlarda asosan 18 yoshgacha bolalar nafaqasi bo‘yicha 185 ta, aliment undirish so‘rovi bo‘yicha 86 ta, muhtojlarga bir martalik moddiy yordam bo‘yicha 38 ta, ish bilan ta'minlash so‘rovi bo‘yicha 18 ta, elektr tarmoqlari obyektlarini (sim ustun, transformator punkti) qurish, ta'mirlash, o‘zgartirish bo‘yicha 54 ta, mahalla ichki yo‘llarini qurish, ta'mirlash, shag‘allashtirish, asfaltlash bo‘yicha 510 ta, davolanish va jarrohlik amaliyoti uchun moddiy yordam bo‘yicha 60 ta, uy-joy bilan ta'minlash bo‘yicha 19 ta, gaz ballonni suyultirilgan gaz bilan to‘ldirishdagi muammolar bo‘yicha 12 ta, 52 ta ichimlik suvi ta'minotidagi muammolar ko‘tarilgan.

Xalq qabulxonasi tomonidan bu borada tashkilot rahbarlari va MFY va tegishli mas’ullar hamkorlikda ishlar tashkil etilishi bilan birga muammolarni bartaraf etish yuzasidan ko‘rsatmalar berib kelinmoqda.

R. To‘xtayev,
Qumqo‘rg‘on tumani Xalq qabulxonasi mudiri

natijasida don tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdori kamayib ketadi. Yiliga 1 marta avlod beradi. Zararli xasva ta’sirida 5-50% hosil yo‘qotiladi, urug‘lik donning unib chiqishi 50% gacha kamayadi. Zararli xasvaga qarshi o‘simlikning o‘sov davrida 1 m 2 (kvadrat metr) da 2-3 dona qishlovdan chiqqan xasva yoki 7-8 dona yangi avlod lichinkasi topilganda kimyoviy ishlovlar o‘tkazib kurashiladi.

Shilimshiqqurt (pyavitsa) - zararkunanda o‘simlik bargiga zarar yetkazadi, shilimshiq qurt lichinkasi kuchli zararlaganda 50% gacha hosilni kamaytirishi mumkin. Shilimshiq qurt yiliga 1 marta avlod beradi. Bu hol ayniqsa qurg‘oqchilik yillarida yaqqol seziladi. Zararkunandaga qarshi 1 m 2 (kvadrat metr)da 20-30 dona qo‘ng‘iz yoki 100 ta poyada 50 dona lichinka topilganda insektisid qo‘llaniladi.

G‘alla shiralari. Shiralar o‘simlikning yashil va yumshoq qismida sharbatini so‘rib oziqlanadi. Natijada o‘simlik sarq‘ayib, qurib qoladi. Kuchli zararlanganda g‘alla boshqo tortmaydi. Mavsum davomida shiralar 10-12 avlod beradi. Shiralar ta’sirida 5-15% hosil yo‘qotiladi. Shiralarga qarshi g‘alla niholining 15% poyalari shiralar koloniyasi (to‘dasi) bilan qoplanganda kimyoviy ishlovlar o‘tkaziladi. Har gektar maydonga 1000-2000 tadan oltinko‘z tuxumlari tarqatib biologik usulda ishlovlar amalga oshiriladi.

Bug‘doy tripsi. Trips lichinkalari boshqo qobig‘i ichiga kirib, qobiq va gul shirasini, keyinchalik esa don shirasini so‘rib oziqlanadi. Yiliga 1 ta avlod beradi. Tripslar ta’sirida 30-35% hosil yo‘qotiladi. Bug‘doy tripsiga qarshi bir o‘simlikda 10 donadan ko‘p trips topilganda kimyoviy ishlov o‘tkazib kurashiladi.

Zararli xasva va boshqa zararkunandalarga qarshi – Lyambda-tsigalotrin asosli preparatlardan gektariga 0,07-0,1 litr, Imidakloprid asosli preparatlardan gektariga 0,1 litr sarf me’yorida ishlatish tavsiya etiladi. OVX va shtangali purkagich bilan 1 gektar maydonga 0,1 litr preparat sarfi hisobida 600 litr suvga 0,2 litr miqdorida preparat qo‘shib, 2 gektar maydonga qo‘llash maqsadga muvofiq. Motorli qo‘l purkagichi bilan sepihda 10 litr suvga 2,5 ml hisobida qo‘shib, 2,5 sotix maydonga qo‘llash lozim. Bundan tashqari, davlat ro‘yxatiga olingan, Asetamiprid, Alfa-sipermetrin, Deltametrin, Sipermetrin asosli kimyoviy preparatlardan birini tavsiya etilgan me’yorda qo‘llash mumkin. Zararkunandalarga qarshi biologik kurash choralari. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining zararkunandalariga qarshi biologik usulda kurashishda oltinko‘zni to‘g‘ri qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. G‘alla nihollarida so‘ruvchi zararkunandalarning (shira, trips) paydo bo‘lishi bilan ularning keyinchalik ko‘payib ketishini oldini olish maqsadida, oltinko‘zning tuxumini dalalarga zararkunandalar miqdoriga qarab gektariga 2000-3000 donadan tarqatish tavsiya etiladi.

Zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurash choralari. Kimyoviy preparatlarning ishchi eritmalarini tayyorlash uchun avvalo purkagich apparatlari bakinig taxminan yarmiga qadar toza suv qo‘yiladi va gidroaralashtirgich ishga tushiriladi. Oldindan tayyorlab qo‘yilgan (o‘Ichab qo‘yilgan) kimyoviy preparat miqdori o‘Ichov idishiga (chelakka) solinadi va unga 5-7 litr suv quyib aralashtirib, birlamchi eritma tayyorlanadi va purkagich bakiga quyiladi. Shundan so‘ng kimyoviy preparat qoldig‘i yana 2-3 marotaba chayilib, bak sig‘imiga quyiladi va suv bilan to‘ldiriladi. Kimyoviy preparatlar purkash ishlarini traktor purkagichlari (OVX-600,VP-1, shtangali va boshq.) yordamida gektariga 200-300 litr ishchi eritmasi sarflab o‘tkazish maqsadga muvofiq. OVX va shtangali purkagich nakonechnigi uchi 2 mm, ikkinchi (6-7 km/soat) tezlikda, 2-2,5 ATM/bosimda 45 gradusli burchak ostida purkashni ta'minlash lozim. Kimyoviy preparatlarni ertalabki va kechki paytlarda ishlatish, bunda havo ochiq, harorat 14 – 20°C atrofida bo‘lishi, shamolning tezligi sekundiga 3 m dan oshmasligi kerak.

Qadrli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari! Ekinlaringizga har qanday holatda kimyoviy ishlov berishdan oldin, albatta, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi mutaxassislari bilan maslahatlashing! Bu oltin qoida. Preparatlarni qo‘llashdagi birgina xatoyingiz sizning butun mavsum uchun qilingan rejalararingizni barbod qilishi, pirovardida hosilingizni butunlay yo‘qotishingizga olib kelishi mumkin.

Shu o‘rinda shuni eslatib o‘tishimiz kerakki tumanimizda zang kasalligiga qarshi profilaktik ishlov bermagan, begona o‘tlatga qarshi gerbitsidlar sepmagan klaster va fermer xo‘jaliklari mavjud. O‘simliklar karantini to‘g‘risidagi qonunining 19-20-moddalariga asosan klaster va fermer xo‘jaliklarining o‘simlik kasalliklari, begona o‘tlari, zararkunandalarga qarshi kurash majburiyati mavjuddir. Karantindagi kasalliklar, zararkunandalar, begona o‘tlarga qarshi kurash ishlarini olib bormagan klaster va dehqon fermer xo‘jaliklari MJTK ning 107-108-moddalari bilan ma'muriy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantiramiz.

Surxondaryo viloyati O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi Qumqo‘rg‘on tuman bo‘limi inspektorlari

YAXSHILAR YODI...

(Ustoz Fayzulla Davanov haqida)

Ustozlar haqida gap ketganda hazrat Navoiyning otashin misralari yodimga tushadi.**Haq yo'linda kimki, senga bir harf o'rgatmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.**

Iskandar Zulqarnayn hazratlari: "Ustozim (Arastu) otamdan ulug', chunki otam meni yuqoridan yerga tushirdi, ustozim esa meni yerdan ma'naviyat osmoniga ko'tardi" degan ekanlar. Shuning uchun xalqimiz "Ustoz otangday ulug'", "Ustoz ma'naviy padar" deb e'zozlaydi. Muhaddislar sultoni Muhammad Ismoil al-Buxoriy "Ilmdan boshqa najot yo'q" deganlar. Albatta, bunday donishmandlik namunalari ko'plab o'qish va

uqish mumkin. Bilim ziyon qilmaydi, balki insonlar ma'naviyatini rivojlantiradi.

Ustozimiz Fayzulla Davanovni eslaganimda yuqoridagi firklar xayolimdanda o'tadi. Ustoz degan sharaflin omaga hamma muallimlar ham loyiq bo'lmaydi. Bunday hurmatga F. Davanov musharraf ko'rilgan. U tabarruk inson umrining 40 yildan ziyodini maktab ishiga, xalqning jigargo'shalariga ta'lim va tarbiya berishga

bag'ishladi. U zod ulug' inson edilarki, menga o'xshagan minglab shogirdlari og'zidan bol tomib, mehr-muhabbat bilan eslaymiz. Ustoz bizni 4-sinfda (1957-58 o'quv yilida) o'qitganlar. 66 yil burungi mehr to'la ko'zlari, muloyim, yoqimli so'zlari hamon qulog'im tagida jaranglaydi. U kishi o'rta bo'ydan sal pastroq, istarasi issiq, o'tkir nigohli, xushro'y, shunga qaramasdan salobatli, haybatli edi. Suhbatdoshini, ayniqsa bilimi sayoz, dunyoqarashi tor kishilarni dovdiratib qo'yardi. O'sha paytda Jarqo'rg'on tumaniga qarashli maktabda ishlaganligi uchun xalq ta'limi bo'limining "Hurmat taxtasi"da Xalq

ma'orifi a'lochilari, mohir pedagoglarning suratlari qatorida hurmatli ustozimizning rasmi ham osig'liq turardi. Bu ham bizga faxr va g'urur bag'ishlardir.

Bilimdond o'qituvchimiz 1983 yilning oxirlarida vafot etdi. O'zidan 4 nafar o'g'il, minglab shogirdlar, yuzlab muallim, shifokorlar, muhandis, agronom va el xizmatida mashhur insonlarni qoldirdi. Taniqli shogirdlaridan adabiyotshunos olim H. Oqbo'tayev, xalqning sevimli shoiri Eshqobil Shukur yetishib chiqdi. Shuncha ezgu ishlarni bajargani uchun ustozimizning ilohim oxirlari obod, qabrlari Qur'on nurlari bilan munavvar bo'lsin, deymiz.

Xushvaqt Hakimov,
Boysmoqli mahallasi,
nafaqada



Milliy liboslar kuni

Tumandagi 20- maktabda o'tkazilayotgan "Milliy qadriyatlar oyligi" turkumi doirasidagi tadbirlar keng qamrovli madaniy-ma'rifiy yo'nalishlarda tashkil etilmoqda. Xususan, har juma kuni maktabda an'ana sifatida o'tkazilayotgan "Milliy liboslar kuni" nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida ham katta qiziqish va iliq munosabat uyg'otmoqda.

Tadbirning asosiy maqsadi — yosh avlod ongida milliy o'zlikni anglash, milliy madaniyatimiz, qadimiy urf-odat va an'analarimizni asrash va targ'ib qilish orqali ularda milliy iftixor va estetik didni shakllantirishdan iborat.

O'quvchilar O'zbekistonning turli hududlariga xos an'anaviy milliy kiyimlarda maktabga tashrif buyurib, bir-birlari bilan taassurot almashishmoqda. Bu esa ularning nafaqat o'z hudud madaniyati, balki boshqa hududlarning madaniy merosi bilan ham yaqindan tanishishiga imkon yaratmoqda.

Maktab hududida tashkil etilayotgan milliy liboslar ko'rgazmalari, ijodiy chiqishlar, milliy raqs va qo'shiqlar tadbiri yanada mazmunli va jozibador qilib, bolalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim o'rin tutmoqda.

Har bir "Milliy liboslar kuni" yakunida milliy obrazda faol ishtirok etgan o'quvchilar alohida e'tirof etilib, faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alalar bilan taqdirlanmoqda. Bu esa ularni yanada faol va ijodkor bo'lishga ruhlantirmoqda.

"Milliy liboslar kuni" maktab hayotida milliylikni asrab-avaylash, yoshlarda madaniy merosga bo'lgan hurmat va qiziqishni oshirish, shuningdek, bu boy merosni kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim loyiha sifatida xizmat qilmoqda.

Muhabbat Xolmo'minova,
20-maktab o'qituvchisi



Kitobxonlik oiladan boshlanadi

21-25 aprel kunlari o'tkazilayotgan "O'zbekiston – kitobxonlar yurti" shiori ostidagi V respublika kitobxonlik haftaligi Qumqo'rg'on tumanida ham tantanalil boshlandi.

Tuman ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi rahbari Matluba Mustanova, tuman kengashi deputati R. Mengziyayevalar 11-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida yoshlarning kitobga mehrini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, xayrli tashabbuslar haqida so'z yuritdilar. Shuningdek, "Sevimli kutubxonamga kitob sovg'a qilaman" aksiyasi doirasida muassasaga kitoblar tuhfa qilindi.

– Haftalik doirasida muassasada ko'plab tadbirlar rejalashtirilgan. Jumladan, bir qator yangi asarlar taqdimotlari, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar, "Kitob va kino" hamda "Kitobxonlik oiladan boshlanadi" ko'rik-tanlovlari, "Zakovat" intellektual o'yini, xalqimizning kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan davra suhbatlari o'tkaziladi.

R. Mengziyayeva

Mening onam hamshira



alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilk bor tashkil etilgan mazkur tanlov ayni shu xayrli maqsadga qaratilgan.

Tanlov bolajonlar qalbida ota-onasi bilan faxrlanish, ular kasbiga hurmat va muhabbat paydo qildi, rassomlik iqtidorlarini omma oldida namoyon etish imkonini berdi. Tasavvur va tafakkur mevasi bo'lgan suratlar tashkiliy komissiya a'zolari tomonidan munosib

baholandi.

G'oliblar va faol ishtirokchilar hamda ularning ota-onalariga O'zbekiston Sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi tuman kengashining faxriy yorliq, qimmatbaho esdalik sovg'alari tantanalil tarzda topshirildi.

Dilshoda Shoimqulova,
tuman tibbiyot
birlashmasi kasaba
uyushmasi raisi

To'ylar-o'ylarga aylanmasin...

"Bizni kemirguvchi illatlar" degan odatlarimiz, shu to'y va ta'ziya ismindagi devonaligimizdan iboratdir. Bir do'konchi, bir gulkor, bir faqirhol, bir kosib uchun bu to'y va ta'ziyalar o'lumdan qattig'durki, muning uchun bechora har kun o'lur. Har kun o'lg'on ila-da qutulmas. O'zidan so'ngra ahlu ayolig'a bu yo'qsullik va bu musibatni meros qo'yar...".

Ushbu satrlar ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan "Oyna" jurnalida e'lon qilingan.

Oradan bir asrdan ortiq vaqt o'tib ana shu mulohazalarni o'qir ekanimiz, to'y-marosimlardagi dabdababozlik, isrofgarchilik, manmanlik kabi illatlardan xalos bo'lish xalqimiz uchun ham, jamiyatimiz uchun ham hali hanuz dolzarb bo'lib turganini yanada teranroq anglab yetamiz.

To'y – xalqimiz uchun qadriyat darajasiga ko'tarilgan marosim. Unda odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat, saxovat, bag'rikenglik, mehmondo'stlik mujassam.

Afsuski, keyingi paytda ushbu marosim azaliy qadriyatlarimizdan ancha uzqolishib, faqat dabdaba va hashamni ko'z-ko'z qilish vositasiga aylanib bormoqda.

To'ylarimizda bir paytlardagi ajoyib odatlar – to'y egasining yaxshi fazilatlarini, ezgu amallarini, mahallaga, odamlarga ibratini aytish yoshlarga o'ziga xos saboq bo'lgan, to'yga kelganlar nimadir yangi gap eshitgan, ezgu ishlarni o'rgangan.

Mehmonlar so'zga

chiquvchilarning gapiga qarab, shu oilaga havas bilan qaragan. El-yurt ishiga aralashmaydigan, namuna ko'rsata olmagan oilalar haqida esa oqsoqollar yaxshi fikr bildirsa-da, kinoyalil jumlar bilan ularni qaysidir ma'noda izza ham qilgan. Bu ham o'ziga xos tarbiya usuli bo'lgan.

Bugun to'ylarda bunday o'ziga xos ma'rifiy suhbatlar, ibratlar unut bo'lmoqda. Aksincha, turli xil yangidan-yangi, bachkana odatlar paydo bo'lmoqdaki, bunga keng jamoatchilik e'tiborsiz qaramoqda.

Deylik, keyingi paytda to'y bolaning, kelin-kuyovning, san'atkorlarning ustidan pul sochish, ba'zilarida hatto poyandozday to'shsh holatlari uchramoqda. Kelin-kuyov to'ylarida esa turnaqator turli tuman markadagi avtomobillar kortejini gapimasa ham bo'ladi. Bu ba'zi fuqarolarimizning saviyasi ming mashaqqat bilan ishlal topgan pulni shu tariqa sochishga yetayaptimi, deb afsuslanasan kishi.

Pul bu shunchaki moddiy muomala vositasigina emas, balki davlatimizning iqtisodiy ramzi hamdir. Pul sochish yoki poyandoz qilish iqtisodiy savodsizlik, o'zimizga nisbatan hurmatsizlikning bir ko'rinishi, deb o'ylayman. Har birimizda milliy g'urur, o'zligimizga, ostonamizga, Vatanga, tilimizga, davlatimiz ramzlariga hurmat bo'lmas ekan, jamiyat taraqqiyotida yuksaklikka erishish qiyin kechadi.

Yoki to'ylarda ayrim yoshlarning o'ziga yarashmagan tarzda qiliqlar qilib (buni raqs deb aytish noo'rin), mehmonlar



e'tiborini tortishga urinishi, turli xil shou va tomoshalarning uyushtirilishi ham to'ylarimizning ma'naviy qadr-qimmatiga putur yetkazmoqda.

Bularning barchasiga keyingi paytda to'ylarda turli xil odatlardan paydo bo'lishiga befarq qarashimiz, yangi urf chiqibdi, deb unga ko'r-ko'rona ergashishimiz sabab bo'lmayaptimi? Nega, ko'pni ko'rgan oqsoqollarimiz, el ichida hurmat e'tiborga ega nuroniylarimiz, ota-onalar bunga befarq qarayapti? Axir yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash, ularga xalqimizga xos an'ana va qadriyatlarini o'rgatish, avvalo biz kattalarning vazifamiz emasmi?

Bunday holatga barham berish uchun davlat idoralarining munosabati, huquqiy hujjatini kutish shart emas, nazarimda. Bunga avvalo, jamoatchilik o'z munosabatini bildirishi, xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni o'zligimizga xos bo'lmagan odatlardan tiyilishga chaqirishi lozim.

Toshpo'lat Allashev,
O'zMTDP Surxondaryo viloyat Kengashi ijroiya qo'mitasi xodimi

Milliy libos qadriyatlarimiz ifodasidir

Xabaringiz bor, yurtimizda haftaning har juma kuni milliy liboslar chelenji o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

Qumqo'rg'on tuman madaniyat bo'limi, Surxondaryo viloyat ko'zi ojizlar kutubxonasi Qumqo'rg'on tuman filiali bilan birgalikda "Milliy liboslar" kuni o'tkazilmoqda. Milliy liboslar tarixi, milliy liboslar va urf odat qadriyatlarimizni saqlab qolish va targ'ib etish maqsadida targ'ibot tadbiri o'tkazilmoqda.



Kasb-hunar o'rganamiz!

Maktabgacha tarbiya yoshi pedagogik ta'sir uchun eng qulay payt hisoblanib, bu davrda bola vatanni sevis, ota-onaga muhabbat, o'zaro do'stona munosabatlar, jamoaviylik, mehnatni sevis, har qanday inson faoliyatini hurmat qilish bilan bir qatorda kasbga bo'lgan qiziqishlari ham sekin-asta shakllanib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosiy bilimlarni shakllantirishning eng birinchi bosqichi kasblar orqali bolalarga ma'lumot yetkazishdan iboratdir. Tumanimizdagi "Gultepa" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 11-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida "Kasbga yo'naltirish" mavzusida seminar o'tkazildi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarni kasbga qiziqitirishi va ma'lum kasbga nisbatan qobiliyatlarini aniqlashi aynan shu qobiliyatlarni rivojlantirish muhim sanaladi. Faoliyatda kutilgan natijaga erishish uchun tarbiyachi interfaol metodlar orqali bolalarga kasblar haqida ma'lumotlar berib, kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borishdi. Buning uchun interfaol metodlardan samarali foydalanildi. Masalan, tarbiyachilar faoliyati davomida "Yashiringan kasblar", "U kim?", "Qaysi kasb egalarga tegishli predmet?", "Qiziqarli kasb" va hokazo interfaol metodlar orqali bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borishdi. Seminar davomida bolajonlar jonli tabiatda mehmon bo'lishdi. O'rdak, g'oz, bedana, qo'zichoqlar, ulochchalar, quyon, akvariumdagi baliqlarni bolajonlar kuzatishib zavq olishdi. Yashil makon doirasida gullar parvarishi ham ko'rsatib o'tildi. Tikuvchilik, shifokorlik kasblari bolajonlar tomonidan ko'rsatildi.

MUASSIS:

Xalq deputatlari Qumqo'rg'on tuman Kengashi va tuman hokimligi

Bosh muharrir:

MENGZIYAYEVA RAYHON YANGIBOYEVNA

Veb saytimiz:

qumqurgon.uz
Telefon: 99-380-38-71

E-mail:

Kumkurgon_sadosi@mail.ru

Tahririyat manzili:

Qumqo'rg'on tumani,
O'zbekiston shoh
ko'chasi

Gazeta «Qumqo'rg'on sadosi» gazetasi

MCHJ kompyuter markazida
terildi va sahifalandi

Sahifalovchi: T. Nazarov

Bosishga topshirish vaqti 10.00

Topshirildi 10.00
Bizning nashr ko'rsatkichimiz 64831
Sotuvda erkin narxda

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi

viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan 2012 yil
2 febralda № 11-042 raqam bilan ro'yxatga olingan

Gazeta «Surxon tongi» va «Заря Цыпхана»

gazetalari tahririyati bosmaxonasida
buyurtma asosida A-2 hajmda
1000 nusxada chop etildi.
Buyurtma № _____
Bosmaxona manzili:
Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.